

# **BADIIY MATNDA FRAZELOGIZMLAR BAHO IFODALASH VOSITASI SIFATIDA**

**Nizomova Zebo**

**JDPI o'qituvchi**

e-mail: [nizomova\\_zebo@jspi.uz](mailto:nizomova_zebo@jspi.uz) +998919440012

**Yusupova Barchinoy**

**JDPI 3-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Asrlar davomida shakllangan frazeologizmlar og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda publitsistikada o'tkir, ta'sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi. Yozuvchilar o'z asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalanish bilan birga mavjud frazeologizmlarni asar ruhiga moslagan holda qisman o'zgartiradilar, shu yo'l bilan yangi iboralar yaratadilar.

**Kalit so'zlari:** frazeologizm, frazeologik birlik, frazeologik birikma, frazeologiya, til birliklari, til vositasi, milliy kolorit, obrazlilik, ibora, tilshunoslik, majoziylik, lug'aviy birlik, sema, pragmatik sema, kinoya.

Kishilar til vositasida o'zaro aloqaga kirishar ekan, til birliklari turli mazmundagi fikrlarni nutq qaratilgan shaxsga yetkazish, uni harakatga yo'naltirish, ta'sir etish vazifalarini bajaradi. Til tizimida muhim o'rin tutuvchi birliklardan biri frazeologizmlar hisoblanadi. Chunki, frazeologik birliklarda har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari, xalqning donoligi, milliy kolorit o'z aksini topgan bo'ladi, ya'ni frazeologizmlar xalqlarning urf-odatlarini, an'analari, siyosat, din kabi barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga ibora yordamida o'sha xalq haqida ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Frazeologizmlar so'zlardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi va insonning jismoniy hamda ruhiy tabiatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuningdek, insonning ijtimoiy hayotdagi o'rnini, his-tuyg'ularini, o'y-fikrlari, faoliyatini baholash va munosabat ifodalashda frazeologizmlar muhim vosita hisoblanadi.

Turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar Sh.Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Albatta, bu tadqiqotlar frazeologiya sohasida erishilgan muvaffaqiyatlardir.<sup>1</sup>

Frazeologik birikmalar tabiatan turg'un va ularning asosida obrazlilik yotadi. Ana shu xususiyatiga ko'ra frazeologizmlarda baho ifodalash imkoniyati boshqa til birliklariga nisbatan kengroq namoyon bo'ladi. Masalan, *ilonning yog'ini yalagan* frazeologizmidan anglashilgan ma'no *ayyor* so'zidan anglashilgan ma'noga teng keladi, lekin frazeologizmning nutqda obrazli tarzda ifodalanishi, ya'ni majoziylik kasb etishi ularni o'zaro farqlab turadi. Qolaversa, xalqimiz orasida *ilon* deyilganda ko'chma ma'noda shum, ayyor, firibgar shaxslar tushuniladi. Umuman, frazeologizmlar ma'nosida albatta pragmatik sema bo'ladi.

Frazeologizm, tarkibida nechta so'z ishtirok etishidan qat'iy nazar, so'z kabi bir tushunchaga asoslangan ma'no bildiradi. Shuning uchun frazeologizmlar so'z kabi bir lug'aviy birlik hisoblanadi. Frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular nutq jarayonida yuzaga kelmaydi, balki tilda tayyor lug'aviy birlik holatida mavjud bo'ladi. So'zlovchi kommunikativ maqsadiga bog'liq holda tanlangan frazeologizm matn doirasida baholovchi birlikka aylanadi. Masalan, Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asarida frazeologizmlarning baho ifodalanishiga e'tibor qarataylik:

*Yomonni ana shu... she'r yozish qilg'ini «Golos Amerika» do'mbira qilib chalibdi!*

*Bir kuni radioni qo'yib edim, qayta quruvchilar radiodan... Xrushchevga mag'zava to'kdi. Tuxumdan chiqqan zumrashalar... sovet tuzumi arboblari tagini kovlaydi.* (Tog'ay Murod)

Keltirilgan misollarda qo'llanilgan «do'mbira qilib chalmoq», «mag'zava to'kmoq» «tagini kovlamoq» frazeologizmlari so'zlovchining salbiy munosabatini

---

<sup>1</sup> Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари, - Самарқанд СамДУ нашри, 2002. --- 37 б.

ifodalashdan tashqari nutq obyektini salbiylik nuqtai nazaridan baholab kelmoqda. Har uchala frazeologizm ham semantik jihatdan «g'iybat», «bo'hton» ma'nolarini ifodalamoqda.

Frazeologizmlarda ba'zan kinoya ma'nosi ham ifodalanishi mumkin. Bunday holatlar yozuvchi Tohir Malikning «Tilla kalamush» asaridan olingan frazeologizmlarning qo'llanishida seziladi. «*Sherbilak bilan Sherqo'zi qishloqlariga boshqa sayyoralardan vakillar **qadam ranjida qilishmagan bo'lishsa-da, rayondanmi yo boshqa joydanmi komissiya kelib, ko'ngillarni xushnud qilib turibdi***».

Misolda qo'llanilgan «ko'ngillarni xushnud qilib turmoq» birikmasi aslida xursandlik ma'nosini emas, balki norozilik semasini ifodalamoqda. Shuni yodda tutish kerakki, frazeologizm qanday matn tarkibida kelsa, shu matndan uning qanday maqsadda qo'llanilganini anglash mumkin. Shuni inobatga olish lozimki, satira va yumor hosil qilish ko'pgina iboralarning ichki tabiati bilan bog'liq, chunki bir qancha iboralarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq: piching singari semalar mavjud bo'ladi. Quyidagi parchada qo'llanilgan «teshilgan purak holiga tushmoq» iborasida aynan shu holat kuzatiladi:

*Xotining keta turib shunaqa dedi. «Erim erkak emas ekan, endi bitta erkak topib: tegaman», dedi. Xotining naq o'g'il bolaning gapini aytdi, otasiga rahmat!*

*-Cho'pchak to'qivordingiz, rais tog'a. Mening xotinim unaqa demaydi.*

*- Aldayapti, desang, bor, boraver. Qaynotangnikida yo'q bo'lsa, ishonasanmi, gapimga?*

*Bu gapdan keyin Sobitali teshilgan pufak holiga tushdi.*

Matndan ichkilikka berilgan erkakning xotini uydan ketib qolgandan keyingi holati qisqa va aniq, obrazli tarzda o'z ifodasini topganki, frazeologizmdan anglashilgan ma'no matnning hajviy uslubi bilan uyg'unlashib ketganligini sezish quyin emas. Ba'zan so'zlovchi maqsadi va til birliklariga qo'shimcha ma'no yuklash mahoratiga qarab frazeologizmlar tarkibi o'zgarishi ham mumkin:

*Orqaga qaytmaganning ahvoliga ana, bir qara, holiga maymun achinib, yig'lab-yig'lab ado bo'ladi.*

*-O', zo'r! Zo'r tashbih bo'ldi. - Shoirali shunday deb bir oz o'ylandi. Bu onda uchib kelgan ilhom parisi burni ustiga qo'nib, og'ziga tupurdi shekilli, she'r to'qib yubora qoldi: - «Turg'un tog'a dardida bo'ldi xarob bu maymun, suvsiz qoldi bu Jayhun, qurib qoldi Oroljon!*

Yuqoridagi matnda «holiga maymun yig'lamoq» frazeologizmi holiga maymun achinib, yig'lab-yig'lab ado bo'ladi shaklida mahorat bilan o'zgartirilgan hamda gap mazmuniga singdirib yuborilgan. Huddi shuningdek, adabiy tilda «boshiga baxt qushi qo'nmoq» iborasi faol qo'llanib, ijobiy semani ifodalaydi. Yozuvchi bu iboraga o'xshash «*ilhom parisi burni ustiga qo'nib, og'ziga tupurdi*» frazeologik birikmasini qo'llaydi. Bu ibora ifodalayotgan ijobiy baho semasini yanada kuchaytirish, bo'rttirish vositasiga aylangan. Bu yerda qiziq bir holat kuzatiladi. «*ilhom parisi burni ustiga qo'nishi*», birikmasi ilhomlantirish, beixtiyor to'lqinlantirish kabi ma'joziy ma'noda qo'llanilsa, «og'ziga tupurmoq» birikmasi salbiy ma'noni emas, balki, ijobiy pragmatik semani ifodalab kelmoqda.

Umuman olganda, frazeologizmlar til tizimida baho ifodalashning eng muhim vositasi bo'lib, o'quvchi yoshlarda tilimiz boyligini o'rganishga havas orttiradi, og'zaki va yozma nutgda obrazlik hosil qiladi, ifodalanayotgan fikrlar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev B. O'zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatic imkoniyatlari, -Samarqand SamDU nashri, 2002. --- 37 b.
2. Rahmatullayev Sh., O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, T., 1966;
3. Vinogradov V. V., Osnovnie ponyatiya russkoy frazeologii kak lingvisticheskoy dissiplini, v yego kn.: Izbr. trudi, t. 3, M., 1977;
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rachmatullayev Sh., Hozirgi o'zbek adabiy tili [3nashr], T., 1992;
5. Reformatskiy A. A., Vvedeniye v yazikovedeniye, M, 1998.
6. Nizomova, Z. (2020). Teachers' English Proficiency and classroom language use. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 92-96.

7. Nizomova, Z. (2021). ALLITERATION AS A SPECIAL STYLISTIC TECHNIQUE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(5), 244-253.
8. Nizomova, Z. (2021). ALLITERATION AS A LITERARY DEVICE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(02), 161-171.